



THE SKILL OF LISTENING COMPREHENSION AND ITS ROLE IN LANGUAGE LEARNING

Oripova Khusnidakhon Yusubovna

khusnidakhonoripova@gmail.com

Teacher, Department of Second Foreign Language

Uzbekistan State World Languages University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178026>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

*Listening comprehension,
receptive skills,
psycholinguistics,
phonetics, vocabulary,
grammar*

ABSTRACT

This article examines the role of listening comprehension in foreign language learning and explores its linguistic and psychological foundations. The phonetic, lexical, grammatical, and pragmatic components of listening are analyzed. Special attention is given to the psychophysiological mechanisms involved in listening, including perception, auditory memory, inner speech, and anticipation. The study employs theoretical and comparative analysis methods. Additionally, practical recommendations for developing listening skills are provided based on the example of teaching the Persian language.

НАВЫК АУДИРОВАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Орипова Хуснидахон Юсубовна

khusnidakhonoripova@gmail.com

Преподаватель кафедры второго иностранного языка

Узбекский государственный университет мировых языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178026>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

*Аудирование,
рецептивные навыки,
психолингвистика,
фонетика, словарный
запас, грамматика.*

ABSTRACT

В данной статье анализируется роль навыка аудирования в процессе изучения иностранного языка, а также его лингвистические и психологические основы. Рассматриваются фонетические, лексические, грамматические и прагматические компоненты аудирования. Особое внимание уделяется психофизиологическим механизмам восприятия речи, таким как восприятие, слуховая память, внутренняя речь и антиципация. В исследовании использованы методы теоретического и сравнительного анализа. Также представлены практические рекомендации по развитию навыков аудирования на примере изучения персидского языка.



TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASI VA UNING TIL O'RGANISHDAGI O'RNI

Oripova Xusnidaxon Yusubovna

khusnidakhonoripova@gmail.com

Ikkinchi chet tili kafedrasi, o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20178026>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2026

Accepted: 13th May 2026

Online: 14th May 2026

KEYWORDS

Tinglab tushunish, reseptiv ko'nikmalar, psixolingvistika, fonetika, lug'at boyligi, grammatika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada tinglab tushunish ko'nikmasining chet tilini o'rganish jarayonidagi o'rni hamda uning lingvistik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Tinglash kompetensiyasining fonetik, leksik, grammatik va pragmatik komponentlari yoritilgan. Shuningdek, tinglab tushunish jarayonining psixofiziologik mexanizmlari, jumladan, idrok etish, eshitish xotirasi, ichki nutq va antisipatsiya kabi omillar ilmiy asosda izohlangan. Tadqiqotda nazariy tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada fors tilini o'qitish misolida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida tinglab tushunish ko'nikmasi alohida o'rin egallaydi. Tinglash orqali o'quvchi nafaqat axborotni qabul qiladi, balki nutqiy vaziyatni tushunadi va unga mos ravishda javob qaytaradi.

Ilmiy adabiyotlarda tinglab tushunish faol, ongli va ko'p bosqichli jarayon sifatida talqin etiladi. Xususan, R. Vanderplank ushbu jarayonni kontekstga asoslangan faol tafakkur faoliyati sifatida izohlaydi. Shunga ko'ra, tinglash ko'nikmasini rivojlantirish til o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlarni o'rganish);

qiyosiy tahlil;

kuzatish;

tavsiflash metodi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish ko'nikmasi – bu chet tilini eshitish, mazmunini anglash va eshitilgan materialga nisbatan ongli tarzda munosabat bildirish qobiliyatidir. Til o'rganishda bu ko'nikma asosiy retseptiv (qabul qiluvchi) qabul qiluvchi ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Til o'rganishdagi o'rni:

Real muloqotning asosi – inson suhbatni avval eshitadi keyin javob beradi.

Nutqiy muhitni tushunish – talaffuz, urg'u, intonatsiya va kontekstni anglashga yordam beradi.



Soʻz boyligini oshiradi – eshitish orqali yangi soʻz va iboralarni ongli ravishda oʻzlashtirish mumkin.

Grammatik tuzilmalarni sezish – nafaqat soʻzlar, balki gap tuzilmasi va grammatik shakllar eshitish orqali shakllanadi.

oshqa koʻnikmlarni qoʻllab-quvvatlaydi – gapirish, oʻqish va yozishga ham bevosita taʼsir qiladi.

Tilshunos R. Vanderplank taʼkidlaganidek, “Tinglab tushunish – bu passiv jarayon emas, balki faol, ongli va kontekstga asoslangan tilni qayta ishlashdir”.

Tinglab tushunish koʻnikmasining lingvistik va psixologik asoslari

Ona tilidagi nutqni tinglab tushunishda shakl va mazmun yaxlit ravishda idrok qilinadi, chet tilida ifoda vositasi (til material) va ifodalanmish mazmun (matn) uygʻunlashishi qiyinchilik bilan kechadi. Mazmuni ilgʻash uchun leksik-grammatik hodisalarni yaxshi oʻzlashtirgan, boshqacha aytganda, tinglab lesik va grammatik koʻnikmalari puxta shakllangan boʻlishi kerak. “Chet tili tovush tomonini (tovush, tovush birikmalari va ohangni) farqlay olish koʻnikmasi hosil qilinmogʻi lozim. Demak, tinglab tushunishning leksik, Grammatik va talaffuz koʻnikmlari shakllanishi oqibatida mazkur nutq faoliyati turi boʻyicha malaka hosil qilinadi”.

1. Lingvistik komponentlar:

Tinglab tushunish (listening comprehension) koʻnikmasining lingvistik asoslari bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat:

Fonologik va fonetika

Eshitilayotgan nutqdagi tovushlar (fonemalar), undosh-unlilar farqli, talaffuz, urgʻu va intonatsiya nutqni anglashda aasosiy rol oʻynaydi. Agar tinglovchi fonetik jihatdan murakkab yoki notanish tovush birikmalariga duch kelsa, tushunish sustlashadi.

Fonetik mashqlar: fors tilidagi undosh-unlilar, talaffuz variatsiyalari va aksent farqlarini eshitib ajratish mashqlari (masalan, “ق/q/” va “غ/γ/” farqi).

Leksika (soʻz boyligi) va semantika Tinglovchi nutqda ishlatilgan soʻzlarni tanib, ularning maʼnosini aniqlashi kerak, bu leksik boyligni talab qiladi. Kichik soʻz boyligi yoki noaniq soʻzlar nutq mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

Leksik tayyorgarlik: yangi soʻz va iboralarni oldindan oʻrgatish, sinonim va antonimlar bilan ishlash, oʻzlashmalar (loanwords) va frazeologik ifodalarga eʼtibor berish. Fors tilida lugʻat boyligi – soʻzlarning maʼnosi, sinonimlar, antonimlar, va ayniqsa arbiy va oʻzbek tillaridan kirib kelgan qarz soʻzlar (loanwords) – eshitib tushunishda katta rol oʻynaydi.

Masalan, fors tilida *کتابخانه* (ketābxāneh – kutubxon), *عكس* (aks – rasm), *مدیر* (modir – direktor) kabi soʻzlar yonma-yon ishlatilsa, agar oʻrganuvchi bu lugʻatga ega boʻlmasa, nutqdan maʼno olish qiyin boʻladi.

Grammatika (sintaksis, morfologiya)

Eshitilayotgan nutqdagi gap tuzilmasi, soʻz turkumlari, qoʻshimchalar va Grammatik bogʻlanishlar tinglovchining nutqni anglashida muhim. Agar Grammatik struktura murakkab



bo'lsa va tinglovchi unga tayyor bo'lmasa, tushunish qiyin kechadi.

Grammatik mashqlar: murakkab gap tuzilmalari, bog'lovchi so'zlar, qo'shimchalar yordamida tushuntirish; gap ichidagi morfemalar tuzilishini tushunishga yo'naltirilgan mashqlar. Fors tilida so'z tartibi (masalan, subjekt-predikat-ob'ekt – S-P-O) va bog'lovchi so'zlar (و / va, كه / ke, برای / barāye va boshqalar) ning ishlatilishi nutqni tushunishda muhim.

Masalan: “*او كه آمد، كتاب را آورد*” – “...U kelgach, kitobni keltirdi” tarzida tarjima qilinadi. Agar o'rganuvchi كه so'zini mamnuniyatsiz tushunmasa, jumlaning ma'nosi uzilib qolishi mumkin.

Qo'shimchalar (suffixes) va undosh/unlilar almashinishlarida sodir bo'ladigan grammatik o'zgarishlar (morfologik o'zgarishlar) eshituvchidan yuqori darajadagi lingvistik tajriba talab qiladi.

Kontekst, pragmatika va ko'makchi lingvistik ma'lumotlar

Tinglovchi kontekstual ma'lumotlardan, mavzu haqidagi bilimlardan, nutqning stilistik jihatlaridan foydalangan holda ma'noni to'ldiradi. Masalan: fonetik jihatdan tarjima qilinmaydigan iboralar, sinonimlik, antonimlik, frazeologik birliklar tushunishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, mavzu tanishligi, nutqdagi matalingvistik signallar (intonatsiya, urg'u) tushunishga yordamlidir.

Kontekstga asoslangan tinglash: mavzuga oid matnlar, real nutq materiallari bilan ishlash; oldindan mavzu va kontekst haqidagi bilimni faollashtirish. Kontekst va oldindan mavjud bilim (background knowledge) fors tilini eshitishda juda muhim:

masalan, agar matnda “*نوروز*” so'zi ishlatilsa, u bilan bog'liq madaniy ma'nolarni bilish audio nutqni to'liq tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, nutqchining ohangidan, urg'usidan, nutqning nafaol yoki rasmiy kontekstdan tashqari bo'lganidan ma'no chiqariladi. Masalan, “*چه خبر؟*” (Che khabar?) – “Nima yangilik?” degan oddiy salomlashish bo'lishi mumkin, yoki kontekstga qarab chuqurroq, masalan, «Qalay daromadlar?» degan ma'noga ega bo'lishi mumkin.

2. Psixologik (psixofiziologik) asoslari

Nutq faoliyatining asosiy turlaridan sanalmish tinglab tushunish ham bilishga intilishdir. Har qanday bilish jarayonining esa hissiy va mantiqiy tomonlari mavjud. Tinglab tushunishda ushbu sifatlar uzviy bog'liq holda amal qiladi. Tinglab tushunishning mexanizmlari fanda yetarlicha o'rganilgan.

Nutqni idrok etish

Ruhshunoslar tomonidan nomlangan nutqni idrok etish mexanizmida muayyan sezgilar qo'zg'alishi nazarda tutiladi. Begona tilni bilmagan kishi uni tushunmaydi ham, balki bu tildagi nutqni eshitish qobiliyatidan ham mahrumdir.

Eshitish xotirasi

Ushbu mexanizm idrok qilish chog'ida nutqiy parchani yodda saqlash audiomatnni tushuna imkonini yaratadi. Eshituvchidan tinglangan ma'lumot qismlarini vaqtincha xotirada saqlash va ulardan keyinchalik ma'noni shakllantirish uchun foydalanish talab qilinadi (Rost.2021).

Ichda gapirish



Ichda gapirish mexanizmi faoliyatiga ko'ra, audiomatni idrok etish paytida nutqharakat analizatori ishlaydi. Tushunish darajasi tinglanayotgan nutqni ichki nutqda takrorlashga bevosita bog'liq. Odam eshitayotganini ichida taqlid yo'li bilan qaytarib turadi. Audiomatning notanish yoki qiyinroq joylarini ichda aytib turadi, til materiali puxta o'zalshtirilgan bo'lsa, gapirish va tinglab tushunishni birga qo'shib o'rganish tavsiya etiladi (Brown & Lee, 2021).

Solishtirish va bilib (tanib) olish

Eshitish sezgisiga kelayotgan signallarni xotirada qoliplangan andazaga solishtirish mexanizmi deyiladi. Solishtirish shaxsning avvalgi tajribasiga, uning sezgi va hissiyotiga qarab to'g'ri-noto'g'ri bo'lishi mumkin. Tinglovchi tajribasi deganda, eshitish va nutqharakat sezgilari miyada hosil qilgan iz tushuniladi. Solishtirish natijasida tanib olishga muvaffaq bo'linadi.

Antisipatsiya (oldindan fahmlash)

Bu mexanizm ishga tushganda, audiomatning tuzilishi (jumlar yoki so'zlar shkli)ni yoki uning mazmunini oldindan bilib olish imkoniyati.

Mantiqan tushunish

Yana bir mexanizm audiomatni mantiqan tushunish deyiladi. Miya faoliyatining analitik-sintetik amali asosida va boshqa imkoniyatlar doirasida anglash, ya'ni mantiqan tushunish ro'y beradi (Richards, 2021).

Tinglab tushunishning psixofiziologik bosqichlari - tushuntiruv bilan:

1. Tovush qabul qilish: Tovush quloq orqali eshitish sistemasi orqali qabul qilinadi.

2. Signalni uzatish: Tovush to'lqinlari eshitish nervlari orqali miya po'stlog'iga uzatiladi.

3. Perseptiv bosqich: Miya fonemalarga ishlov berib, tovush birliklarini tanib oladi.

4. Psixologik tahlil: Diqqat, idrok, eshitish xotirasi va assotsiatsiya ishga tushadi.

5. Kognitiv ishlov: Ma'no chiqarish, kontekstual tushunish, til qoidalarini uyg'unlashtirish.

6. Tushunish: Eshitilgan gap yoki so'zning umumiy ma'nosi anglanadi.

7. Javob shakllantirish: O'rganilgan yoki anglangan axborotga og'zaki yoki yozma reaksiya.

Misol bilan tushuntirish:

Masalan, o'quvchi fors tilida quyidagi gapni eshitadi:

"*او به دانشگاه رفت*" (U universitetga bordi.)

Jarayon:

1. Tovushlar eshitiladi → quloq orqali miyaga uzatiladi.

2. Miya "*او*", "*دانشگاه*", "*رفت*" so'zlarini fonetik jihatdan taniydi.

3. Xotira va diqqat bu so'zlarni avval o'rganilgan ma'lumotlar bilan bog'laydi.

4. Miya ularning semantik va grammatik ahamiyatini anglab, "U universitetga bordi" deb tushunadi.

5. O'quvchi og'zaki yoki ichki tarzda bu axborotni qayta ishlab, unga reaksiya bildiradi.

Amaliy tavsiyalar (metodik nuqtai nazardan):

Diqqatni jamlash mashqlari: 30 soniyalik matnni faqat 1 marta tinglab, asosiy mazmunni aytib berish.



Eshitish xotirasini rivojlantirish: yangi so'zlar bilan gaplar tuzish va og'zaki yodda saqlash

Stressni kamaytirish texnikasi: audio tinglashdan oldin qisqa nafas olish mashqlari orqali psixologik tayyorgarlik.

Assotsiativ kartochkalar: eshitilgan so'zlar asosida rasm yoki tarjima bilan bog'lash.

Xulosa

Tinglab tushunish jarayoni murakkab psixofiziologik va kognitiv mexanizmlar asosida amalga oshadi. Ushbu jarayonda qisqa muddatli xotira,

ichki nutq, solishtirish va tanib olish, antisipatsiya hamda mantiqiy tushunish kabi mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Audiomatni idrok etish davomida tinglovchi eshitilgan axborotni vaqtincha xotirada saqlaydi, uni avvalgi bilim va tajribasi bilan bog'laydi hamda ma'no hosil qiladi. Tinglab tushunishning psixofiziologik bosqichlarini chuqur o'rganish chet tillarini, xususan fors tilini o'qitishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

References:

1. Anderson A., Lynch T. Listening – Oxford University Press, 2018.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching – Pearson Education, 2015.
3. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam – Moskva: Akademiya, 2018.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching – Pearson, 2015.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi – Toshkent: Fan, 2019.
6. Nation I. S. P., Newton J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking – Routledge, 2020.
7. Richards J.C. Key Issues in Language Teaching – Cambridge University Press, 2015.
8. Rost M. Teaching and Researching Listening – Routledge, 2016.
9. Thornbury S. How to Teach Speaking – Pearson Education, 2017.
10. Ur P. Teaching and Learning in the Language Classroom – Cambridge University Press, 2018.